

MAHOBATLI RANGTASVIR ASARLARI YARATISHGA QO'YILADIGON TALABLAR.

Abdusattorova Munavvarxon Abdurahmon qizi

*Namangan Davlat Universiteti
San'atshunoslik fakulteti 2 -kurs
Magistranti
Namangan .*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Mahobatli rangtasvir asarlariga qo'yiladigon talablar, Mahobatli rangtasvir asoslarini Dasgohli rangtasvir asarlaridan farqi haqida so'z yuritiladi.*


Kalit so'zi: *Mahobatli, texnika va texnologiya, rangtasvir dekorativ, inshootlar, telefoni tuzilishi Dasgohli rangtasviri.*

Manumental rangtasvir asarlari Manumental-lotinchha so'zdan olingan bo'lib haykal, estalik, yodgorlik degan ma'noni anglatadi. Ommaviy tasiri qiluvchi san'at asardir. Dasogohlik rangtasvirda farqi u binolarning devorlariga shiftiga alohida , devor tanqisligiga ishlanadigan tasviriy san'at asarlari hisoblanadi.

Mahobatli rangtasvir asarlari yaratishga qo'yiladigon talablar.

Mahobatli rangtasvir ommaga mo'ljallangan bo'lib uning kompazitsiyasi tuzilishi chuqur ma'no mazmunga ega va katta hajmda bajariladi. Kompazitsiya tili oddiy va aniq tushunarli va badiiylikka egadir . Chiziqlari va sluetlari ma'noli rang dog'lari bezaklidir. Bundan tashqari mahobatli rangtasvir asarlari amaliy bezak ham bo'lishi mumkun, Zamonaviy arxitektura binolarida yangicha tektonik tuzilishga ritm, vaznga qarab tuzilishini hal qilish zarur . Ammo mahobatli rangtasvir asarlari binoning quruq bezagi bo'lib qolmasligi kerak . Arxitektura binolariga ishlangan har qanday manumental rangtasvir asarlari Dastgohlik rangtasvirda farqi uni boshqa bino devorlariga ko'chirib bo'lmasligidadir . Chunki u faqat o'sha bitta bino devoriga mo'ljallangan . Bo'lajak rassomlar Manumental rangtasvir kompazitsiyasi arxitektura bilan bog'liq qonun va talablarini Kompazitsiya vositalarini chuqur bilishi kerak . Devorlarni bezashda mahobatli rangtasviri asarlari bajarishning bir necha turlari bor ulardan alfreska, fresko , temperali rasm , Rim mozaikasi, florensiya mozaikasi, rangli lovkars, klassik buyrak, alyuminiy armatura vitraj , silikatli rangtasvir va boshqalardan foydalanish mumkun . Bunday turlardan foydalanish binoning vazifasiga , joylashuviga qarab belgilanishi lozim . Har doim arxitektura bilan Mahobatli rangtasvir sintezi uyg'unligi amalga oshirilsa yaxshi natijaga erishiladi.





Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materyallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan boʻyoqlar akvarel, guash, tempera, moyli boʻyoqlar shuningdek rangli qalamlar, koʻmir, qalam, pastel, sous, sangiha kabi badiiy materyallar bilan ishlash oʻz xarakterlidir. Rangtasvir asarlarini yaratishda ranglar muhim ahamiyatga ega. Ranglarni tabiatda hosil boʻlishi, tarqalishi va uning oʻziga hosil hususiyatlari qadimdan sanʼatshunoslar, olimlar va rassomlar diqqatini tortgan. □

Rang haqida ilmiy tushuncha boʻlishidan oldin odamlar yorugʻlik va ranglar nisbatini toʻgʻri anglab yetmaganlar. Bu haqida J.Vazariy shunday deydi: rassomlar avval faqat bir rangdan foydalanib ishlaganlar, shuning uchun greklar ularni (monohromatiklar □ monos- bir va chroma-rang) deb atalgan. Bu ham yuksak mavqeyga egalikni koʻrsatgan. Keyinchalik Zavkis, Timanov, Palignot, Timanf kabi rassomlar toʻrt xil rangdan foydalanganlar. □

Asarlarni yorqinlashuvi va borliqni oʻzida aks ettirish maqsadida ranglar bir-biri bilan uygʻunlashinib yangi turlari yaratilgan. □Rang odamlarning his-tuygʻulari va ruhiy holatiga taʼsir qilishi, rangli tebranishlarning insonga taʼsirini oʻrganib, hayotingizni koʻp jihatdan oʻzgartirishingiz mumkin. Har bir rangni ohanglari befarq uyushmalarga ega boʻlib, u shahisning idroki va obyektlarining hajmiga taʼsir qiladi. Rangli tebranishlar susaytirish, qoʻzgʻatish va oʻziga jalb qilish □yoki chalgʻitishi mumkin. Rang palitrasi boʻyida toʻxtatilgan harakatlar taskin topadi, aks ettirish va ijodkorlikka hissa qoʻshadi. Rang vibratsiyalari insonni fiziologiyasiga taʼsir qilib uni ruhiy holatini oʻzgartirishi mumkin. Shu jihatdan ranglar issiq va sovuq ranglarga boʻlinadi. □

Issiq ranglar- qizil, bordo, toʻq sariq, sariq, jigarrang, kulrang va boshqalar. Sovuq ranglar- oq, moviy, yashil, qora, koʻk va boshqa ranglar kiradi. □

Ranglar turiga qarab oʻz pihologiyasiga egadir. □Qizil rang- extiros va fidokorli, faoliyat va maqsadga muvofiqlik, harorat va yoruqlik holatlarini anglatadi. □


Pushti rang- osmirlik, bolalik, aybsizlik bilan bogʻliq. Shu bilan birga tushlar va ramontikani ifodalaydi. Bundan tashqari yoqimli va kuzatuvchanlikni oshiruvchi rang xisoblanadi. □□

Ranglarning taʼsirchan kuchidan rangtasvirchi rassomlar, zamonaviy tibbiyot, ijtimoiy sohalar keng foydalanmoqda.

Sariq rang- bu ilohiy kuch, quyosh energiyasi va oltinni ramzidir. Sariq rang iliq, quvonchli, yengil soya maʼnolarini anglatadi. Miyya faoliyatini qoʻzgʻatuvchi hisoblanib hotiralarni yangilaydi. □

Binafsha rang- yurak xastaligi bor insonlarga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Qon tomir toʻqmalarni chidamliligini oshiradi.





Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, devor, oyna va yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Xar qanday rangtasvir ishida avvalo uni (risunka) yani qoralama holati ishlab olinadi. Shundan so'ng kompazitsiya (joylashuv) amalga oshirilib ranglar orqali nur va soya texnikalari qo'llaniladi.

Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jixadidan turlicha bo'lib, moy bo'yoqli, temperali, freskali, mazaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo'lishi mumkin. Rangtasvir quydagi turlarga bo'linadi. □

Dastgohlik rangtasvir

Monumental (maxobatli) rangtasvir

Miniatyura (mo'jaz) rangtasvir


Dekorativ (bezak) rangtasvir

Teatr-dekorativ (bezak) rangtasvir

Dastgohlik rangtasvir deyilganda rassomning mahsus asbobi dastgoh (molbert) yordamida ishlanadigan ruzatlar tushunuladi. Dastgohli asarlari uncha katta bo'lmagan mato, karton, faner va oynalarga ishlanadi. Dastgohlik rangtasvir ishlari kampuyutor grafikasi bilan bog'lanib ulardan asosan kinomotagrafiya va multtifikatsiya san'ati asarlarini jonlantirishda foydalaniladi. Misol uchun DISNEY kompaniyasi 20 soniyalik multfilim uchun 80 mingta chizilgan rasmlardan foydalanadi. Kino filimlarda persanajlardan tashqari orqa fondagi barcha dekaratsiyalar rassomlarni ijodi maxsulini jonlantirish orqali yaratiladi. Bundan tashqari kitob grafika san'ati va turli nashiryotlar, gazeta va jurnal bosmaxonalarida keng foydalaniladi. □

Monumental rangtasvir (mahobatli) yani katta o'lchamdagi rangtasvir asarlari tushunuladi. Bu turdagi sarlar ko'pincha binoning ichki va tashqi qisimlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvirning mozaika, panno, vitraj, freska kabi turlari mavjud. Freska: asosan devorlaraga ishlanadi. Mozaika: turli tabiiy ikkilamchi materyallar- rangli oyna parchalari, tashlar, sitetik materyallardan bino devorlariga yoki tekis materyallar ustiga ishlanadi. Vitraj: binolarning deraza va eshik oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichi va tashqari tomonidan bir xil ko'rinadi. Bunday asarlardan memorchilik san'atida ko'proq qo'llaniladi. Binolarning interyer va eksteryerlarini bezashda binoning rangbarangligini oshirishda ishlatiladi. Asosan diniy binolar, teatr binolari va jamoat tashkilotlari binolariga ishlatiladi. Bu asarlardan foydalanish nafaqat bezakdorlik balkiy binoning muxtini yaratish, cherkov va manastrlarda dininy talimot berish uchun foydalaniladi. □





Teatr dekorativ rangtasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan girim sahna jihadlari bilan bogʻliq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnani yoritilishi va ranglarga alohida eʼtibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqeya sodir boʻlayotgan joy, davr, muhit toʻgʻrisida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi. Shu jixatlari bilan teart sanʼati va rangtasvir sanʼati doimo hamohangdir. □□

Hozirgi kunda zamonaviy sanʼatning tez suratlarda oʻsib borishi yangi yoʻl va yangi gʻoyalarni kashf qilmoqda. Bu esa sanʼat ijodkorlarini yanada koʻproq ishlashiga va xalqni koʻproq harakat qilishga undamoqda. Sanʼat tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. Sanʼat ijtimoiy hayotning murakkab, rango-rang munosabatlari bilan aloqador boʻlib, u bir vaqtning oʻzida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham oʻziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir koʻrinishi sifatida amal qiladi. Sanʼat ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi boʻlib, oʻziga xos qonuniyatlari vazifalariga koʻra u alohida jamiyat birligini ifodalaydi. Sanʼat jamiyatning barcha tomonlariga taʼsir oʻtkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini ragʻbatlantiradi. Zamonaviy sanʼat bu yangicha qarash, yangicha yondashuv demakdir. Video art, instalyatsiya, audio art kabi yoʻnalishlari □esa tomoshabinning iloxiy va falsafiy tamondan ongini takomillashtirishga va oʻtmish va kelajakni idrok qilishga chorlaydi. □

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R Xudayberganov. „Kompazitsiya. Toshkent. 2007.
- 2.R Xudayberganov. Rangshunoslik Toshkent 2002.
- 3.И Каримов „по пути созидания” Т.1996.й
- 4.Аксеюв Ю, „ цвет и линия Художник “ 1986

